

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 5/8

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 5/8 (3)-2023*

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

## **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Намазова Умида Нормуродовна</i> ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ).....	10-15
<i>Эрназаров Туйгун Раджабович</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ .....	16-21
<i>Хужаниязов Уктам Ешбаевич</i> “ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ХУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ .....	22-27
<i>Шаимкулов Азамат Холмуратович</i> ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ .....	28-38
<i>Муродов Ҳалим Салимович</i> ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР .....	39-46
<i>Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН .....	47-51
<i>Shonazarova Nargiza</i> TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR .....	52-57
<i>Axmadova Nafisa Axmad qizi</i> O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI .....	58-64
<i>Qodirova Ra’no Mamirjonovna</i> O‘ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O‘QITILISHI .....	65-70
<i>Yunusxo’jayev Habibulla Zafar g’o’li</i> SHARQDA KUCHLI IJTIMOIIY NIHOYA TIZIMI TARIXI .....	71-75
<i>Нарбеков Абдикамил</i> НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ .....	76-80
<i>Alimova G‘unchaxon Baxadirovna</i> JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA .....	81-85
<i>Jumanazarova Fotima</i> XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	68-93
<b>08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich</i> PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW .....	94-100

<i>Hamrayev Amirzoda</i> ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKIOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	101-109
<i>Xaitbobaeva Nigora Bakmatatovna</i> T'UQIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANIISH B'YIYCHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	110-119
<i>Xalilov Qahramon Qurbonboyevich</i> MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERNI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI.....	120-132
<i>Maxmudov Tursunpuolat Davronovich</i> INVESTITSIYA MANBALARINING MINTAQAGA IKTISODIYETIGA TA'BSIRI .....	133-144
<i>Ishchanova Salomat</i> KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI.....	145-150
<i>Muydinova Zilola Voxid qizi</i> CHEGARA BOJXONA POSTLARI FAOLIYATIDA "AVTOMATLASHTIIRILGAN I'ULOVCHI XARAKATI" MOBIL ILOVASINI JORIY ETISH ORQALI IKTISODIY TAHLILNI TAKOMILLASHTIIRISH.....	151-158
<i>Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon</i> TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	159-164
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Saidova Kamola Uskanbaevna</i> ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ .....	165-173
<i>Omonturdiyev Orzu G'afforovich</i> INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI .....	174-179
<i>Ochilova Guzal' Aralovna</i> YUKSAK MA'NAVIYAT-MANFAATLAR BIRLIGINI TA'MINLASHNING MU'XIM OMILI.....	180-185
<i>Nurmatova Umida Jalolidinovna</i> MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI.....	186-192
<i>Vafayeva Dilafruz Artikovna</i> AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK.....	193-198
<i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i> IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	199-202
<i>Bozorova Ro'zigul Sharofovna</i> MEHRSIZLIK HODISASINI KELITIRIB CHIQRUVCHI OMILLAR .....	203-212
<i>Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna</i> DINIY MANBALARDA IJTIMOIIY HAMKORLIK O'OYALARI .....	213-218
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI .....	219-224

<i>Dehqonov Behzod Baxtityorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI .....	225-230
<i>Abdullayeva Firuza Sharipovna</i> NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI .....	231-236
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL -MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR .....	237-243
<i>Ибрагимов Солижон Эргашович</i> АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" ТАҲДИДИ.....	244-251
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Qodirova Mukaddas Tog'ayena</i> BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI.....	252-257
<i>Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich</i> DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE .....	258-265
<i>Hamroyeva Sharifa Shukur qizi</i> TARJIMADA MILLIY SO'ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA) .....	266-271
<i>Olimova Gulfiza Muradullayevna</i> BADIIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI.....	272-281
<i>Айниддинов Иқрориддин Шарифович</i> АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ .....	282-287
<i>Turaeva Dilfuza Daminovna</i> O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	288-295
<i>Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna</i> LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI .....	296-305
<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli</i> LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES .....	306-311
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZELOGIK BIRLIKLARNING KOMMUNIKATIV TA`SIRI XUSUSIDA .....	312-317
<i>Шамақсудова Саодат Хидоятовна</i> МАССМЕДИА АСПЕКТНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР.....	318-324
<i>Шатова Ирина Юрьевна</i> ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....	325-330
<i>Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna</i> FRAZELOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI .....	331-335

<i>Alimjanova Shohsanam Azamat qizi</i> KO'P MA'NOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI .....	336-340
<i>Турниязова Шахноза Нигматовна</i> МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	341-347
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI .....	348-352
<i>Aminova Dilnoza Hikmatullayevna</i> THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY .....	353-358
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи</i> ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ .....	359-365
<i>Mamatallyev To'liqin Xushmamat o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI .....	366-378
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Saidov Jur'at Sodirovich</i> МАКТАВГАСНА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	379-384
<i>Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,</i> ТЕХНИК ОЛИЙ О'QUV YURTLARIDA OO'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI .....	385-390
<i>Tadjixodjaeva Эльвира Рашидовна</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ .....	391-396
<i>Тўрахонова Барно Турсунбой қизи</i> БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ .....	397-406
<i>Ashurova Sitara Erkinovna</i> USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION .....	407-412
<i>Каримжоновна Мунаввар Ибрагимовна</i> ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида).....	413-421
<i>Xamirayev Rustam Abdirazakovich</i> VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI ТАКОМИЛЛАСHTIRISH .....	422-426
<i>Хашимова Масуда Камилжановна</i> КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК .....	427-435
<i>Бердикулова Насиба Эркинжоновна</i> СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ .....	436-442



*Saidnazarova Gulshan Bolta qizi*

AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO  
SIFATIDA .....443-448

09.00.00–Фалсафа фанлари

**Nurmatova Umida Jalolidinovna**  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası (PhD) assistenti

### **MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada, axborotlashgan jamiyatda mamlakatimizda aholining, ayniqsa, yoshlarning ong-u tafakkurining yuksalishiga, savodxonlik, kitob mutolaasi va ta'lim-tarbiyasiga zid bo'lgan bir nechta antinomik xususiyatlar tahlil etilgan. Shuningdek, axborot jamiyatining tezlik bilan rivojlanishi aholining mutolaa qilish darajasiga sezilarli tarzda o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi, bugungi kunda ommaviy ravishda odatiy holga aylanib borayotgan, hayot tarzimizni egallab olayotgan texnika vositalarining ijobiy va salbiy tomonlari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** axborotlashgan jamiyat, axborot olish madaniyati, savodxonlik, mutolaa, mutolaa madaniyati, antinomik xususiyatlar, uyali aloqa vositasi, mobil o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlar, internetga tobeklik, virtual olam.

**Nurmatova Umida Jalolidinovna**  
Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute  
Assistant of the Department of Social and Humanities (PhD)

### **ANTINOMIC CHARACTERISTICS OF READING, LITERACY AND EDUCATION**

**Abstract.** In the article, several antinomic features are analyzed that are contrary to the rise of consciousness, literacy, book reading and education of the population, especially young people, in the information society of our country. Also, the fact that the rapid development of the information society has a significant effect on the reading level of the population, and the positive and negative aspects of the technical tools that are becoming common today and taking over our way of life are discussed.

**Key words:** information society, information culture, literacy, reading, reading culture, antinomic features, mobile communication tool, mobile games, social networks, Internet addiction, virtual world.

**Нурматова Умида Джалолидиновна**  
Узбекско-Финляндский педагогический институт  
Ассистент кафедры социальных и гуманитарных наук (PhD)

### **АНТИНОМИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЧТЕНИЯ, ГРАМОТНОСТИ И ОБРАЗОВАНИЯ**

**Аннотация.** В статье анализируются некоторые антиномические черты, противоречащие росту сознательности, грамотности, книжочтения и образования населения, особенно молодежи, в информационном обществе нашей страны. Также обсуждается тот факт, что стремительное развитие информационного общества оказывает существенное влияние на уровень чтения населения, а также положительные и отрицательные стороны технических средств, которые сегодня становятся обычным явлением и захватывают наш образ жизни.

**Ключевые слова:** информационное общество, информационная культура, грамотность, чтение, культура чтения, антиномические черты, средство мобильной связи, мобильные игры, социальные сети, интернет-зависимость, виртуальный мир.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N25>

## **Kirish**

XXI asr axborot texnologiyalari davri jamiyat a'zolarining ong, tafakkur va keng dunyoqarashga ega bo'lishlariga erishishning muhim ta'sirchan omili sifatida kitob o'qishni, kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalasini tobora dolzarblashishiga olib kelmoqda. "Axborot oqimi kuchayib borayotgan, virtual dunyo turli-tuman axborotlar bilan to'lib toshgan bugungi kunda barcha fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy tafakkurini tarbiyalash, ularda mutolaa madaniyatini, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ushbu madaniyatni doimiy va muntazam ko'nikmaga aylantirish har qachongidan ko'ra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda"[1]. Taraqqiyot bir tomondan yangiliklarga boy bo'lsa, ikkinchi tomondan insoniyatni ulkan salohiyatlarga yetaklagan ba'zi imkoniyatlarning vorislik darajasini chegaralab qo'ydi. Ong va tafakkur, nutq va savodxonlikning o'ziga xos mezonlaridan biri bo'lgan mutolaa ham axborot asrida jiddiy tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Internet saytlarida soatlab o'tiradigan yoshlarning kitob mutolaa qilish imkoniyatlari qanchalik o'z o'rniga ega, degan qarashlar paydo bo'ldi. Bu holat tabiiyki, ko'pchilik tadqiqotchilarning oldiga jiddiy vazifalarni yuklaydi. Mutolaa hodisasi murakkab jarayon sifatida axborot olish, dunyoqarashni kengaytirish va bilim egallashning muhim vositalaridan biri bo'lib qolmoqda.

## **Adabiyotlar sharhi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" PQ-3271-son Qarori (Miziyoyev, Sh. 2017), ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlarining kengayib borishi, aholining ayniqsa, yoshlarning o'zaro qiziqishlariga yoki faoliyatga ega shaxslar bilan muloqot qurish imkoniyatlari xususida (G'aybullayev, O. 2019, B. 447), bugungi kunda, insoniylikka butunlay zid, yovuzlikka asoslangan shaytoniy sektalar faoliyati haqida (Abdumalikov, A. 2016, B.60), oflayn manbalarga qiziqishining ortishi, yangiliklarni iste'mol qilish istak-maylini kuchayib borishi nuqtai nazaridan (Худойқулов, Д. 2020, B.171), Internetdagi tahdidlardan himoya (Muhammad Amin, Yahyo. 2016, B. 252-253), Olamning qalbi yohud kitob mening taqdirimda (Sharafiddinov, O. 2014, B.112) ga e'tibor qaratilgan.

## **Metodologiya**

Mutolaa, savodxonlik va yoshlar ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir etayotgan obyektiv va subyektiv omillar, ularning antinomik xususiyatlari kuzatuv, sotsiologik so'rovnoma, analiz va sintez metodlaridan foydalanib tahlil etildi, muammoni keltirib chiqaruvchi sababiyat turkumlashtirilib olingan natijalar murakkablik darajasiga nisbatan yaxlitlashtirildi. Bugungi voqeliklar nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yoshlar ongu tafakkurida mutolaa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ustrvor yo'nalishlar va ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi yuzasidan tavsiyalar berish.

## **Natija va muhokama**

Hozirgi kunda axborot oqimining shiddat bilan kirib kelishi kitob mutolaasi, savodxonlik va ta'limning barqarorligini ta'minlashga zid bo'lgan antinomik xususiyatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Biz mamlakatimizda aholining, ayniqsa, yoshlarning ong-u tafakkurining yuksalishiga, savodxonlik, kitob mutolaasi va ta'lim-tarbiyasiga zid bo'lgan bir nechta

antinomik (bilish jarayonidagi ziddiyat) xususiyatlarni ko'rib o'tamiz. Ana shunday antinomik xususiyatlardan dastlabkisi bu – uyali aloqa vositasidir.

*Uyali aloqa vositasi bu* – texnik taraqqiyotning haqiqiy inqilobidir. Ammo, shu bilan birga salbiy tomonlari ham bor. Eng avvalo, qo'l telefon inson sog'ligiga zarardir. Ammo bugungi kunda telefon o'smirlarimiz hayotidagi muhim vositalardan biriga aylangan. Bu esa asab va immunitet tizimlari nurlanishiga, bosh og'rishiga, uyqu buzilishiga olib keladi. Diqqatni pasayishi, xotira va ko'rish qobiliyatini susaytirish bilan birga, muloqot qilish zaruratini yo'qotadi. Uyda oila davrasida, ta'lim dargohida, ko'chada telefonga tobelik kitob o'qish istagini yo'qotadi, chunki, har qanday ma'lumotni internet orqali telefondan oladi. Darhaqiqat, ko'pchilik yoshlar kitob o'qishdan ko'ra soatlab telefon orqali muloqot qilishni afzal ko'rishmoqda.

*Ikkinchi antinomiya* bu – mobil o'yinlari. Kuchli mobil qurilmalar paydo bo'lishi bilan o'yin sanoati o'z qamrovini sezilarli darajada kengaytirdi. Bugungi kunda kompyuter o'yinlarining muxlisi bo'lmaganlarning aksariyati Android mobil qurilmasida o'ynaydi. Chunki, mobil qurilma har doim qo'lida. "Mobil o'yinchilar"ning keng doirasini bolalar tashkil qiladi. Bepul mobil java o'yinlari (New Java Games, flesh, download va hk) bugungi kunda eng ommabop bo'lib o'smirlarni kun-u tun behuda vaqt sarflashiga sabab bo'lmoqda. 2020-yilda Android tizimi uchun Genshin Impact eng zo'r o'yin, deb e'tirof etilganligi fikrimizning isbotidir.

Yildan-yilga video o'yinlarga bo'lgan talab oshib borib, ko'plab o'yinlar virtual olamda o'z o'rnini topib bormoqda. Ayniqsa, Counter-Strike, Global Offensive (CS GO), League of Legends, Fortnite, Dota 2, Overwatch kabi eng mashhur kiber sport o'yinlari ommalashib bormoqda. Mutolaa qilishdan ko'ra kiber sport o'yinlari bilan vaqt o'tkazuvchilar soni ortmoqda.

Fikrimizcha, bu kabi o'ziga qaram qiluvchi o'yinlar yoshlarning ong-u tafakkuriga sezilarli darajada salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. O'yin vaqtida odamning ko'rish va xayoliy harakatga mas'ul asablari faoliyatda bo'ladi. Bu esa fikrlash faoliyatining susayishiga olib keladi.

*Uchinchi antinomiya* bu – ijtimoiy tarmoqlar. Bugungi kunda dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lish, jamoatchilik fikrini o'rganish borasida ijtimoiy tarmoqlar bilan bellasha oladigan birorta ham sayt yo'q, desak adashmagan bo'lamiz. Aksariyat yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda soatlab vaqtini behuda sarflamoqda. Vaholanki, ma'lum bir shaxs tomonidan internet ijtimoiy tarmoqlar tizimiga qo'yiladigan ma'lumotlar boshqa shaxslar yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan turli maqsadlarda foydalanish holatlari uchramoqda. Shu jumladan ma'naviyat va ma'rifatga zid bo'lgan video roliklar, asossiz xabarlar ta'sirida yashamoqda. Virtual olam yoshlarni manipulyasiya qilmoqda. Erta tongdan to kechgacha do'stlari bilan muloqotda bo'lgan o'spirin virtual olamda yashaydi, uning fikrlash tarzi, odatlari, xatti-harakatlari ham o'zi yaratayotgan "internet timsol" xarakteriga moslashib sog'lom tafakkur tarzini yo'qotadi. Oqibatda, o'zlikni yo'qotish, real hayotdagi "Men"idan ayriladi. Xullas, ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo'lgan informatsion chiqindilardan xotira va diqqat aziyat chekadi, qarorlarni qabul qilish va hissiy qayta ishlash murakkablashadi. Kitob esa anglash funksiyalariga hech qanday ta'sir xavf tug'dirmaydi. Darhaqiqat, o'zlikni anglash, kognitiv tafakkur tarzi, yuksak ma'naviyat faqatgina kitob mutolaa qilish orqali takomillashtirib boradi.

*To'rtinchi antinomiya bu* – internetga tobelik. Internetga tobelik bolani kitob mutolaa qilish undan ma'naviy, estetik zavqlanish hissini butunlay yo'qotadi. Shuningdek, internetga

tobelik tushkunlikka, o'z joniga qasd qilishga olib kelishi mumkin. Masalan, internetdagi "1xBet" nomli onlayn qumor o'yiniga berilgan Andijon viloyati Shahrixon tumanida yashovchi 1991-yilda tug'ilgan B.R.ismli shaxs 2021-yil 18-noyabr kuni qabristonda o'zini osib joniga qasd qilgan. Qolaversa, internetda hayosiz filmlar ko'rish o'smirlarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir qilish bilan birga, uni ichkilikbozlikka, giyohvandlikka va boshqa ijtimoiy zid harakatlarga olib keladi. Ayni paytda sotuvdagi disklardan, kompyuter va internet saytlaridan cheklanmagan ravishda foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi, ota-onalar bilan avlodlar orasida ziddiyatlar, o'z farzandlarini nazorat qilishga qodir bo'lmay qolayotgan ota-onalar borligi hozirgi kunning eng katta muammosidir.

Bizning fikrimizcha, bunga bugungi kunda ommaviy ravishda odatiy holga aylanib borayotgan, hayot tarzimizni egallab olayotgan texnika vositalarining ijobiy tomonlari bilan birga salbiy tomonlari ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

"Hozirgi kunda butun jahonda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham internet tarmog'idan faol ravishda foydalanuvchilar soni kundan kunga ko'payib bormoqda. Chunki, internet vaqtni va mablag'ni tejashga yordam berishidan tashqari axborotlarni juda tez uzatish va qabul qilish, kerakli ma'lumotlarni tez izlab topish, uzog'imizni yaqin qilish, onlayn suhbatlar qurish, dunyo voqealari bilan qisqa fursatda xabardor bo'lish kabi ko'plab imkoniyatlarni yaratib beradi"[2:447]. Ana shunday ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlarining kengayib borishi, aholining ayniqsa, yoshlarning o'zaro qiziqishlariga yoki faoliyatga ega shaxslar bilan muloqot qurishga, kitob o'qishga, ta'lim-tarbiya tizimiga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Mutaxassislar o'tkazgan maxsus tadqiqotlar natijalariga ko'ra, barcha mavjud saytlarning taxminan 12 foizi pornografik xususiyatlarga ega, 44,0 foiz zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishiga, 41,0 foiz jangari, turli otishmalar va portlashlarga asoslangan mavzuga bag'ishlangan. Shuningdek, bugungi kunda, insoniylikka butunlay zid, yovuzlikka asoslangan shaytoniy sektalar faoliyati ham jadallashmoqda[3:60]. Ana shunday salbiy holatlar savodxonlik va ta'limning antinomik jihatlarini keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda o'qish, savodxonlik va ta'limning sifat darajasiga qanday sabablar to'siq bo'layotganligini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazganimizda 1178 nafar respondentlarning 23.1 foizi o'qish va yozishni bilish, 36.3 foizi esa elektron aloqa kanallarining ko'pligi, 37.5 foizi bir nechta xorijiy tillarni bilish, 39.6 foizi kitob o'qishga qiziqmaslik deb to'g'ri ko'rsatishgan. "Nima uchun ko'pchilik o'qishdan ko'ra televizor ko'rishni va internetni afzal ko'radi?" degan savolga, 14.6 foizi ekran madaniyati qulay, 28.9 foizi ko'ngilochar ekanligi uchun, 33.6 foizi global axborotlarni bilish uchun, 23 foizi badiiy film, serial, konsertlar uchun degan javobni berishgan. Mazkur javoblarga ko'ra, aholi, ayniqsa, yoshlarning kitob o'qish istagining sust ekanligi hamda ijtimoiy tarmoqlar asosiy vaqt omilini egallab borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotchi D.Xudoyqulov fikricha: "Mutolaa madaniyati doirasi yangiliklar, tarkibiy qismidagi o'zgarishlar aholining iste'molchilik madaniyati nuqtayi nazaridan sodir bo'lmoqda. Bular mutolaa qilishning subyekt-obyekt tizimidan, kitob-o'quvchi tizimidan onlayn, oflayn manbalarga qiziqishining ortishi, yangiliklarni iste'mol qilishga istak-maylini kuchaytirib yubormoqda. Mutolaa madaniyatini o'rniga ko'rib eshitish media, MP3, MP4 formatidagi audio, video mahsulotlarni internet qidiruv tizimlarida mavjudligi o'quvchining kitobga bevosita faolligini susaytirib, qisqacha, tez ma'lumot iste'molchisiga aylantirib qo'ymoqda"[4:171]. Bunday holatlar o'quvchini virtual olamga tobelik hissini keltirib chiqaradi.

Mutaxassislarning fikricha, virtual olam asiriga aylangan bolalar ruhiy zo'riqish – "stress" ostida qoladi. Virtual olamga kirib ketgan bola hech narsani eshitmaydi, ko'rmaydi, hamma narsani unitadi. Bunday paytda uning ruhiyati kuchli hayajon ta'sirida bo'ladi.

Ayniqsa ma'naviy zarar bedavo xastalikdir. Bola go'yo plastilinga o'xshaydi. Chetdan olayotgan axborotlar ta'sirida uning qarashlari turli o'zgarishlarga uchraydi. Internetga bog'langan bolalar, tabiiyki, asosiy ma'lumotni virtual olamdan oladi. Bolalarning noutbuk yoki kompyuterlardan bilim olishi, aqlni o'stiruvchi o'yinlar o'ynashi yoki kitobni o'qish uchun foydalanishi juda kam uchraydigan holat. Odatda, u ota-onasi, o'qituvchilari real hayotda qaytaradigan, ma'naviy to'siq bo'ladigan axborotlarni egallashga intiladi. Internetdan oqib kirgan buzg'unchilik, zo'rvonlik, axloqsizlik bolaning ongiga qattiq o'rnashib oladi.

Kitobga, o'qishga qiziqish uning ongidan siqib chiqariladi. Uning savodxonlik darajasi tushib ketadi, dunyoqarashi o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotlar bilangina cheklanib qoladi. Bola fikrlashni to'xtatadi, chunki u istagan narsasini internetdan topib olaveradi[5:252]. Bunday salbiy oqibatlariga olib kelmasligi uchun bee'tibor bo'lmasligimiz kerak. Biz aholining, ayniqsa, yosh avlodning ongiga globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlarini, jamiyatda yuz berayotgan mafkuraviy jarayonlar ichidan oqni-oqqa, qorani-qoraga ajratishi hamda mafkuraviy immunitetini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy omili – bu kitob o'qish ekanligini qalbi va ongiga singdirishimiz lozim.

Hozirgi axborotlashgan jamiyatda mutolaa, savodxonlik va ta'limning izchilligini ta'minlashda yuzaga kelayotgan muammolarning o'ziga xos obyektiv va subyektiv omillarini ko'rsatib o'tish mumkin. Bunga sabab, bir tomondan, axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi, internetning hayotimizga tobora chuqurroq kirib borishi, elektron matnlar, audio kitoblar, globallashuv, axborot makonida ma'lumotlarning nihoyatda ko'pligi, yangi nashrdan chiqayotgan kitoblarning qimmatligi, bozor iqtisodiyotining ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan, kitob o'qishga qiziqmaslik, sayoz badiiy tafakkurli kitoblar yaratilishi, aholiga xizmat ko'rsatish borasida elektron kitob shakllaridan samarali foydalanish imkoniyatlarining mavjud emasligi va boshqa ko'plab subyektiv omillari mavjuddir.

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, ilgari bolalar ko'p kitoblarni o'qishgan, chunki uyda tunu kun qo'lida telefon, katta ekranli televizorlar bo'lmagan. Kitobdan olingan ma'lumot televizor, internet va radiodan qabul qilingan ma'lumotdan ko'ra ko'proq miyaga ijobiy ta'sir qiladi. Undan tashqari, kitob mutolaa qilish aqlni charxlaydi, diqqatni bir joyda uzoq vaqt ushlay olish, kreativ tafakkur tarzini hamda ma'naviy barkamollik, ruhiy xotirjamlik ko'nikmasini shakllantiradi. Bugungi kunda, bolaning ongida kitobdan quvonch olish, zavqlanish tuyg'usini shakllantirish dolzarb muammo bo'lib bormoqda.

XXI asrda axborot texnologiyasi taraqqiy etdi. Bu degani endi birovning kitob mutolaa qilishi amrimahol degani emas. "Kitob degan narsa insonning tabiati, mohiyati bilan bog'liq bo'lgan buyuk mo'jizadir. Inson bor ekan, kitob ham qay bir shaklda yashayveradi"[6:112]. Chunki har qanday aqlni shoshiradigan kashfiyot kitob mutolaasiga to'sqinlik qilolmaydi, aksincha, o'zgarishlarning sir-sinoatini anglashda kitob asq otadi.

Bugunigi voqeliklar nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda yoshlar ongu tafakkurida mutolaa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ustivor yo'nalishlar va ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim deb hisoblaymiz. Bular:

1. Bolalarni yoshligidan ongiga salbiy ta'sir etuvchi telefon, televizorlardan himoya qilgan holda, kitobga mehr uyg'otish, kitobsevar qilib tarbiyalash maqsadida kutubxonalarda

kitoblarni ertaknamo elektron roliklar, texnika jihozlari va malakali tarbiyachilar bilan ta'minlanishini tizimli yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", - degan naqlga tayansak, ota-ona kitob o'qisa, bola kitob o'qiydi, - telefon o'ynasa, bola ham telefon o'ynaydi.

2. MTM va maktab muassasalarining Book trailer (*har qanday badiiy shakldagi kitob haqida hikoya qiluvchi qisqa videorolik*) bilan ta'minlangan kiosklar (*kitob tarqatish shoxobchalari*) faoliyati yo'lga qo'yish lozim. Shunda bola va uning ota-onasi ertalab ta'lim muassasasiga kirish oldida eshitadi, ko'radi va kitobni olib o'qishga bo'lgan istak ham ota-onada, ham bolada uyg'onadi.

3. TV kanallarida 30/40% gacha aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviy dunyoqarashini boyitadigan, ilm-fan yutuqlariga hissa qo'shadigan kitoblar haqida qisqa ma'lumot beruvchi reklama roliklarini kiritishni yo'lga qo'yish zarur deb hisoblaymiz. Kitob mutolaasini zamonaviy interaktiv yoritilish mexanizmini ishlab chiqish lozim.

4. Mamlakatimizda mavjud kitob do'konlarida "bestseller" (eng ko'p sotilgan) moda kitoblari uchun yoshlar klublarini tashkil etish zarur. Klub veb-saytidagi kitobxonlar doimiy fikr-mulohaza shaklida tashkil qilish lozim. Bu kabi klublar, hozirgi kunda aholi, ayniqsa yoshlar muhitida yetakchi muloqot kanallarini belgilab beruvchi internet, axborot jamiyatida kitobxonlar safini kengaytirish hamda shaxs tafakkur tarzida kognitiv konstruktiv qobiliyatni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

#### **Xulosa**

Mulohazalarimizdan xulosa qiladigan bo'lsak; birinchidan, axborot jamiyatida o'qish va savodxonlikning ijtimoiy-madaniy muammolari aholi, ayniqsa, yosh avlod o'rtasida mutolaa, ta'lim va savodxonlik bilan bog'liq bo'lgan qarama-qarshiliklar mutolaaning antinomik xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Shu bois, jiddiy nazoratga olish hamda davlat miqyosida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur deb hisoblaymiz; ikkinchidan, axborotlashgan jamiyatning ahamiyati qanchalik ortib borishidan qat'iy nazar badiiy va ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlarni asosan kitob shaklida mutolaa qilish lozim. Chunki ekranda o'qilayotgan asar inson his-tuyg'ulari, xayolot dunyosiga to'liq ta'sir qilolmaydi; uchinchidan, kompyuter, xususan, internet foydalanuvchilariga ekran, asosan, kerakli ma'lumotlarni o'qish uchun xizmat qiladi. Kitob mutolaasi esa diqqatni jamlab, sahifalarni uzluksiz ravishda birma-bir o'qib chiqishni nazarda tutadi. Bunday ko'nikma asosan odatiy kitob mutolaasi asnosida shakllanadi; to'rtinchidan, har bir oilada, ta'lim muassasalarida, jamoat tashkilotlarida kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni, mehr-muhabbatni kuchaytirish zarur. Shundagina jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi.

#### **Adabiyotlar/Литература/ References:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Китоб махсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирдар дастури тўғрисида" ПҚ-3271-сон Қарори.// <https://president.uz/uz/lists/view/1029>.
2. G'aybullayev O. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi. –Т.: Fan texnologiyasi, 2019. – 447 б.

3. Абдумаликов А. Фуқаролик жамиятида шахс инфор­мацион маданиятини шакллантириш. Монография. – Т.: Фан, 2016. –60 б
4. Худойқулов Д. Замонавий ахборот маконида ёшлар мутолаа маданиятининг қадриятли-методологик ўзгаришлари. Фалсафа ва ҳаёт халқаро журнал –Тошкент, 2020. -№1. –Б.171.
5. Яҳё Муҳаммад Амин. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. –Т.: Movarounnahr, 2016. – 252 б.
6. Шарафиддинов О. Оламнинг қалби ёхуд китоб менинг тақдиримда. –Т.: Маънавият, 2014. –112 б.



# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 5/8 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).